

OTP GURUHINING SANKSIYALARGA RIOYA ETISH SIYOSATI

(Sanksiya qoidalariga amal qilish bo'yicha siyosat)

Kirish

OTP Guruhi Yevropa Ittifoqi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi, Birlashgan Qirollikning vakolatli organi hamda AQSh hukumati tomonidan joriy etilgan iqtisodiy, moliyaviy va savdo sanksiyalari to'g'risidagi qonunlar, qoidalar va embargo qoidalariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan sanksiyalarga rioya qilish siyosatini qo'llaydi. Sanksiyalar va cheklov choralariga rioya qilish nuqtayi nazaridan OTP Group mahalliy qonunlarni ham hisobga oladi va ushbu Guruh a'zosi unga nisbatan qo'llaniladigan milliy sanksiya talablariga rioya qiladi.

Guruh sanksiyalariga rioya qilish siyosati

OTP Group'da Sanksiyalarga rioya qilish siyosati va tegishli tartib-qoidalar mavjud bo'lib, ular OTP Bank Plc. va uning sho'ba korxonalari uchun **minimal talablarni** belgilaydi. Ushbu siyosat Guruh a'zolarining sanksiyalar bo'yicha majburiyatlarga amal qilishini ta'minlashga qaratilgan. Ular, jumladan, quyida keltirilgan standartlar va tartib-qoidalarga amal qiladi:

- **Mijozlar va operatsiyalarni tekshirish (screening):** Mijozlar va transaksiyalarni kamida, shu jumladan, biroq ular bilan cheklanmasdan, Yevropa Ittifoqi, BMT, Buyuk Britaniya va AQShning sanksiya ro'yxatlari bo'yicha yoki Guruhning muayyan a'zosi bo'lgan taqdirda, yoki tegishli mamlakatning aktivlari muzlatilishi lozim bo'lgan shaxslarning milliy ro'yxati bo'yicha tekshirish.
- **Tadbirkorlik faoliyatni taqiqlash yoki cheklash:** Tadbirkorlik faoliyati, moliyaviy va investitsion mahsulotlari yoki xizmatlarini taqdim etish yoki amaldagi sanksiyalar to'g'risidagi qonunlar hamda qoidalarni buzishi mumkin bo'lgan bitimlarni amalga oshirishga ko'maklashishni taqiqlash yoki cheklash. Ushbu taqiqlar, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qo'llaniladigan sanksiyalarni chetlab o'tish yoki chetlab o'tishga qaratilgan bitimlar yoki tadbirkorlik faoliyatida har qanday ishtirok etishning oldini olishga qaratilgan.

Cheklovlar, jumladan, sanksiyaga uchragan jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan tadbirkorlik faoliyatini yoki keng qamrovli sanksiyalar qo'llanilgan mamlakatlar yoki hududlar (jumladan, Kuba, Eron, Shimoliy Koreya va Suriya, Ukraina hukumati tomonidan nazorat qilinmaydigan hududlari: Qrim, Donetsk, Xerson, Lugansk va Zapaoje viloyatlari (vaqt o'tishi bilan mumkin bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda) bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq har qanday faoliyatni taqiqlashi mumkin.

- **Riskka bo'lgan yondashuv (risk appetit):** OTP Bank Plc. va uning tegishli sho'ba korxonalari, o'z xohishiga ko'ra moliyaviy va investitsiya mahsulotlari yoki xizmatlarini taqdim etishni yoki tranzaksiyalarni amalga oshirishga ko'maklashishni garchi amaldagi sanksiyalar to'g'risidagi qonunlar va me'yoriy hujjatlar bilan ruxsat etilgan bo'lsa ham, agar u OTP Guruhi siyosati yoki risk darajasiga mos kelmasa, bank uni bajarishni rad etishi mumkin.

OTP Guruhi barcha aloqador mijozlar va operatsiyalarni baholash uchun o'zining ichki qoidalarini qo'llaydi. Bunda, amaldagi sanksiya qonunlariga va o'zining Sanksiyalarga rioya qilish siyosatiga amal qilish jarayoni ba'zan operatsiyalari kechikishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, tranzaksiyada ishtirok etayotgan vakil korrespondent banklar ham o'z siyosatiga zid bo'lsa yoki ularning tekshiruv tizimi sanksiyaxatarini ko'rsatsa, har qanday tranzaksiyani to'xtatib qo'yish huquqiga ega. OTP Bank Plc va uning tegishli sho'ba korxonalari faqat mijoz va vakil bank o'rtasida vositachi sifatida qatnashadi va korrespondent banklar qaroriga ta'sir qila olmaydi.